

**MODERNIZATSIYALASHGAN KUTUBXONACHILIK FAOLIYATIDA  
RAQAMLI AI (ARTIFICIAL INTELLIGENCE) TRANSFORMATSIYA  
BOSQICHI: SUN'IY INTELLEKT(AI) ASOSIDA ISHLAYDIGAN KITOB  
TAVSIYASI VA ANNOTATSIYASI BERUVCHI BOT**

*Qarshi Osiyo Texnologiyalari Universiteti  
Komyuter Injineri (sirtqi) 24.11 guruhi talabasi,  
Adib Sobir Termiziy nomidagi Surxondaryo Viloyat  
Axborot Kutubxona Markazi Axborot Texnologiyalari  
Kommunikatsiyalari va Raqamlashtirish xizmati  
bosh kutubxonachisi: **Rahmonova Muharram Xasanovna***

**Anotatsiya:** Ushbu maqola modernizatsiyalashgan kutubxonachilik faoliyatida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining rolini o'rganadi. Maqolada AI asosida ishlaydigan kitob tavsiyasi va annotatsiya beruvchi botlar orqali kutubxonachilik xizmatlarini takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, foydalanuvchi ehtiyojlarini aniqlash, avtomatik tavsiya qilish va kitoblar bo'yicha qisqa annotatsiyalar yaratish jarayonlarida AI ning samaradorligi va afzalliklari ko'rib chiqiladi. Maqola, raqamli transformatsiya jarayonida kutubxonachilikni yanada interaktiv va individualizatsiyalangan xizmatlarga yo'naltirish imkoniyatini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** *Sun'iy intellekt (AI), Kutubxonachilik, Raqamli transformatsiya, Kitob tavsiyasi, Annotatsiya yaratish, Avtomatlashtirilgan xizmatlar, Foydalanuvchi ehtiyojlari*


**Asosiy qism:** Bugungi kunda zamonaviy elektron va avtomatlashgan kutubxonalarda Sun'iy Intellekt (AI)- ma'lum tizimni boshqaruvchi va foydalanuvchi tajribasini tubdan o'zgartiruvchi texnologiyaga aylandi.



*1-rasm. Adib Sobir Termiziy nomidagi Surxondaryo Viloyat Axborot Kutubxona Markazida foydalanuvchilar Mutolaa zalida*

Sun'iy intellekt(AI) bilan raqamlashgan va ushbu bosqichga transformatsiya qilinayotgan kutubxona ish faoliyati va tizimlarida ko'plab yangi imkoniyatlarni hamda Axborot kutubxona muassasi foydalanuvchilariga ko'plab qulay foydalanish huquqlarini ochib berdi.

Kutubxonalarning raqamli transformatsiyasi shunchaki kitoblarni elektron shaklga o'tkazish emas, balki foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yangi bosqichga olib chiqishdir. AI asosida yaratilgan yangi botlar bu jarayonda asosiy vosita hisoblanadi. Bunga misol tariqasida, Adib Sobir Termiziy nomidagi Surxondaryo Viloyat Axborot Kutubxona Markazida **AI Book Match\_bot** ni keltirishimiz mumkin, kutubxonada AI Book Match loyihasi tuzilib, ayni damda foydalanuvchilarga taqdim etilgan.



*2-rasm. Ai\_bookmatch\_botning QR-kodi*

AI Book Match nima? **AiBookMatch** — bu sun'iy intellekt asosida yaratilgan kitob tavsiya va izoh beruvchi Telegram bot bo'lib, foydalanuvchilarga ularning qiziqishlariga mos kitoblarni tavsiya qilish, annotatsiyalarini yozish va bibliografik ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradi. Ushbu texnologiya ([https://t.me/aibookmatch\\_bot](https://t.me/aibookmatch_bot)) foydalanuvchi yozgan so'rovga tahliliy yondashadi, sun'iy intellekt yordamida javob shakllantiradi va qisqa, tushunarli ma'lumot beradi.

Botning qulayliklari quyidagilardan iborat:

- Oddiy foydalanuvchi uchun tushunarli interfeys
- Telegram orqali 24/7 foydalanish imkoniyati

- Har bir buyruqqa tezkor javob
- Hech qanday ro'yxatdan o'tishsiz foydalanish imkoniyati
- Mobil va kompyuterda bir xil qulay ishlaydi

Ya'ni, **AI BookMatch** – siz bilan fikrlashadigan, sizni o'rganadigan va siz uchun kitob tanlaydigan aqlli tizim. **AI BookMatch** — bu Python dasturlash tili asosida yaratilgan Telegram-bot bo'lib, foydalanuvchilarga kitob tavsiyasi, annotatsiyasi va bibliografik ma'lumotlarni sun'iy intellekt yordamida taqdim etadi.



Texnik ma'lumot:

Yaratilgan tarmoq: **Telegram**


Bot yaratuvchi platforma: **BotFather orqali**

Dasturlash tili: **Python**

Sun'iy intellekt modeli: **ChatGPT-3.5-mini API kaliti ulangan**


Til imkoniyatlari: **O'zbek, rus va ingliz tillarida ishlaydi**

**Shaxsiy Tavsiyalar-AI** sizning xolatingizni tushunib, faqat siz uchun mo'ljallangan kitoblarni taklif qiladi. Janr, moda va sevimli avtorlarga asoslanadi. **Batafsil Annotatsiya**-kitobning qisqacha mazmuni, temasining qisqacha izohi va o'quvchilar haqida oqim ma'lumot olasiz. O'qishdan avval nima kutishni bilasiz. **Bibliografik Ma'lumot**-Muallif, nashr yili, nashriyot, ISBN va boshqa muhim detallar bir joyda, referans uchun kerak bo'lgan hammasini topasiz.



**4-rasm. Bot buyruqlari**

Shuni aytishimiz mumkinki, AI Book Match nafaqat Axborot Kutubxona Muassasi foydalanuvchilari balki kutubxonachilar uchun ham foydali platformadir. Negaki bot, kitoblar haqida annotatsiya, tavsiya va bibliografik ma'lumotlarni tezda olish imkoniyatini taqozo etadi va kitobxonlarga individual yondashuv asosida xizmat ko'rsatish osonlashadi. Kutubxona fondini targ'ib qilish va o'quvchilar bilan muloqotni samarali tashkil etadi hamda zamonaviy texnologiyalarni kutubxona faoliyatiga integratsiya qilish imkonini beradi.



**Demo rejimi davomida Aibookmatch 150+ foydalanuvchi tomonidan sinovdan o'tkazildi.**

- ✓ O'rtacha javob tezligi: 1.2 soniya
- ✓ Qoniqish darajasi: 70%
- ✓ Eng ko'p ishlatilgan buyruq: /kitob
- ✓ Eng mashhur janr: Psixologik va motivatsion



**@aibookmatch** - bu faqat bot emas, bu sizning kitob dunyosiga kirish eshigingiz. O'zbek tilida so'zlashuvchi har bir kishi, boshlang'ich sinf talabasi ham, universitetdagi magistr ham, bu botdan foydalana oladi. Hozir boshlang: /start buyrug'ini yozing va yangi kitoblar olamiga safarni boshlang!

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. (Loyiha dolzarbligini huquqiy asoslash uchun).

2. G'aniyeva, B. (2022). Axborot-kutubxona muassasalarida raqamli transformatsiya. (Mahalliy kutubxonachilik tajribasiga oid darslik).
3. Mishra, R. K. (2021). Application of Artificial Intelligence in Libraries. (Kutubxona faoliyatida AI qo'llanilishi bo'yicha nazariy qo'llanma).